Ключевые слова: зелёная экономика, загрязнение окружающей среды, изменение климата, социальные потребности, экономический рост, зелёные технологии, экономическое развитие, энергоэффективность, зелёные инвестиции, экологические стандарты.

## KIRISH

So'nggi o'n yillik davomida iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va suv taqchilligi kabi global ekologik jarayonlarni boshqarish zarurati ortib bormoqda. Ushbu holatlar bilan bir qatorda asosiy ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni samarali hal etish uchun an'anaviy iqtisodiy modellarni modernizatsiya qilish ehtiyoji dunyo miqyosida keng muhokama qilinmoqda. 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz mazkur jarayonlarga yangi turtki berib, ekologik barqarorlikka asoslangan "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Shuningdek, 2015-yilda barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish – 2030 Kun tartibi va uning 17 ta maqsadi global rivojlanishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yo'nalishlarini uyg'un holda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ushbu maqsadlar qashshoqlikni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarni bir butun strategiya sifatida belgilaydi. Natijada, barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik tizim bilan iqtisodiy tizim o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu global chaqiriqlar yashil iqtisodiyotga o'tish zaruratini kuchaytirib, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini ekologik barqaror yondashuv asosida tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etdi. Iqlim va atrof-muhit

bilan bog‘liq masalalarni hal etish nafaqat tabiiy-ilmiy bilimlarga, balki salbiy ta’sirlarni yumshatishga qaratilgan texnik yechimlar — masalan, uglerodsiz energiya texnologiyalari —ni ishlab chiqish bo‘yicha muhandislik tajribasiga ham tayanadi.

Barqaror texnologik o‘zgarishlarni amaliyotga tatbiq etish murakkab ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni qamrab oladigan ko‘p qirrali harakatdir. O‘tish davrida energetika, suv ta’minoti va boshqa yirik infratuzilma tarmoqlarini ijtimoiy-texnik tizimlar sifatida qayta konseptualizatsiya qilish zarurati yuzaga keladi[1].

Global iqtisodiyot oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayonlarni boshqarish va atrof-muhit sifatini yaxshilashdir. Ushbu omillar nafaqat aholining farovonligiga, balki iqtisodiy barqarorlik va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun global hamjamiyat barqaror rivojlanishga erishish hamda iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish maqsadida $CO_2$ chiqindilarini kamaytirish va ekologik standartlarni kuchaytirishni asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olgan[2].

Yashil texnologiyalar integratsiyasining mazmuni

Yashil texnologiyalarni iqtisodiy rivojlanishga integratsiya qilish ekologik toza, samarali va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalariga joriy etish orqali iqtisodiy o‘sishning yangi sifat bosqichini yaratishni anglatadi. Mazkur jarayon ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1.Atrof-muhitni muhofaza qilish: chiqindilarni kamaytirish, havo, suv va tuproqni ifloslanishdan himoya qilish.

2.Energiya samaradorligi: energiya resurslaridan oqilona foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va resurslardan tejamkor foydalanish.

3.Qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish: shamol, quyosh, geotermal energiya kabi tabiiy resurslarga asoslangan energetika tizimlarini rivojlantirish.

4.Barqaror rivojlanish: tabiiy resurslarni uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan tarzda boshqarish va ekologik risklarni minimallashtirish.

Ko‘plab davlatlar yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha aniq strategik maqsad va vazifalarni belgilab olgan. Bunda asosiy savol quyidagicha shakllanadi: “Yashil iqtisodiyotga o‘tishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?” BMT Yevropa Iqtisodiyot Qo‘mitasi ekspertlarining ta’kidlashicha, yashil iqtisodiy modelning bosh maqsadi — iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarga “yashil investitsiyalar”ni keng jalb qilishni rag‘batlantirishdan iborat.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish maqsadi va strategik vazifalar muayyan tamoyillar asosida shakllanadi. Ushbu tamoyillar iqtisodiyotning ekologik yo‘naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari an’anaviy “jigarrang iqtisodiyot”ga nisbatan kengroq qamrovga ega bo‘lib, ularning ilk asoslari 1972-yilda Stokgolmda o‘tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan konferensiyada shakllangan.

Iqtisodiy adabiyotlarda, xalqaro va milliy amaliyotda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini shakllantirishga doir yondashuvlar keng qo‘llanilib kelmoqda. 2012-yilda UNEP Boshqaruv kengashi huzurida “Yashil iqtisodiyot” koalitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyotga o‘tish tamoyillari ilmiy hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etilgan va amaliy qo‘llanishga ega (1-rasm).




1-rasm. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari[3]

1Geels, F. W. From sectoral systems of innovation to socio-technical systems: insights about dynamics and change from sociology and institutional theory. *Research Policy*, 2004, 33, 897–920.

2Raihan A, Begum RA, Said MNM, Pereira JJ (2022) Relationship between economic growth, renewable energy use, technological innovation, and carbon emission toward achieving Malaysia’s Paris agreement.

3Yashil iqtisodiyot : Darslik / A. V. Vaxabov, Sh. B. Xajibakiyev va boshq. – Toshkent : “Universitet”, 2020. – 262 b.

Yashil texnologiyalarni iqtisodiyotga integratsiya qilish samarali amalga oshirilishi uchun davlat, biznes va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari muhim ahamiyatga ega. Davlat ekologik standartlarni belgilashi, yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashi zarur. Shu bilan birga, aholining ekologik madaniyatini oshirish, innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish va ularni iqtisodiy faoliyatga tatbiq etish ham ushbu jarayonning ajralmas omillaridan biri hisoblanadi.

Yashil texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etishda moliyalashtirishning nazariy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiyotda ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va salbiy ta'sirlarni minimallashtirish kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Yashil texnologiyalar ushbu maqsadlarga erishishda muhim vosita bo'lib, ularning jadal rivojlanishini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarni yetarli darajada safarbar etish talab etiladi. Iqtisodiyotni yashil transformatsiya qilishga qaratilgan siyosat va strategiyalar aynan moliyalashtirish mexanizmlarining mustahkamligiga tayanadi.

2022-yilda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

1.Fransiya Taraqqiyot Agentligi (AFD) bilan hamkorlik.

2022-yil davomida AFD bilan birgalikda yashil iqtisodiy siyosatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarz dasturi amalga oshirildi. Ushbu dastur doirasida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga ko'maklashish maqsadida AFD tomonidan respublika budjetiga 150,0 mln yevro miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

2.Dekarbonizatsiya va institutsional islohotlar bo'yicha tashabbuslar.

Mazkur loyiha doirasida qazilma yoqilg'i subsidiyalarini bosqichma-bosqich qisqartirish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, issiqxona gazlari bo'yicha monitoring–hisobot–tekshiruv (MRV) tizimini joriy etish, shuningdek, yashil budjetlashtirish va yashil soliq mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. 2023–2025-yillarda ushbu yo'nalishlarni moliyalashtirish uchun Yevropa Ittifoqidan 6,1 mln yevro grant mablag'lari jalb qilindi.

3.Urbanistik rivojlanishda yashil yondashuvni kuchaytirish.

2022-yil oktyabr oyida O'zbekiston delegatsiyasining Fransiyaga tashrifi davomida viloyatlar (shaharlar) bosh rejalarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha 100 mln yevro miqdorida moliyaviy hamkorlikka doir dastlabki kelishuvga erishildi.

4.Global Methane Pledge tashabbusiga qo'shilish.

O'zbekiston 2022-yil may oyida Buxoro shahrida bo'lib o'tgan xalqaro forum doirasida metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha global tashabbusga qo'shildi. Tashabbus doirasida mamlakatlar 2030-yilgacha metan emissiyasini 2020-yil darajasidan 30 % ga kamaytirish maqsadida birgalikda harakat qilishga rozilik bildirgan. Shu munosabat bilan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) tomonidan "Metan emissiyasini kamaytirish milliy dasturi"ni ishlab chiqishga yo'naltirilgan 1 mln AQSH dollari hajmdagi texnik ko'mak jalb qilindi.

5.Uglerod bozori mexanizmlarini joriy etish.

Jahon banki bilan hamkorlikda Parij bitimining 6-moddasiga muvofiq qisqartirilgan issiqxona gazlari bo'yicha xalqaro savdo mexanizmini yo'lga qo'yish loyihasi ishlab chiqildi. Jahon bankining "Transformative Carbon Asset Facility (TCAF)" jamg'armasi orqali O'zbekistonga uglerod bozorida ishtirok etish uchun metodik va moliyaviy yordam ko'rsatildi. Pilot loyihalarni amalga oshirish uchun 20 mln AQSH dollari miqdoridagi grant va qo'shimcha ravishda 25 mln AQSH dollari mablag'ni jalb qilish rejalashtirildi.

6.Dekarbonizatsiya bo'yicha uzoq muddatli strategiya (LTS).

Jahon banki va YTTB bilan hamkorlikda iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda. Parij bitimining 4-moddasiga ko'ra, davlatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligi maqsadiga erishish uchun o'z strategiyalarini belgilashlari lozim. Strategiya doirasida uglerod neytralligini ta'minlaydigan asosiy chora-tadbirlar, investitsiya ehtiyojlari va kapital qo'yilmalarning iqtisodiy ta'siri aniqlanadi.

7.Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikdagi tashabbuslar.

•Davlat investitsiyalarini baholashda iqlim mezonlarini (C-PIMA) qo'llash imkoniyatlari o'rganildi va ularni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

•Yirik sanoat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy qilishning hozirgi holati tahlil qilindi, bu borada tavsiyalar ishlab chiqildi va o'quv-treninglar tashkil etildi.

•Iqlim o'zgarishining iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini baholovchi Climate Risk Assessment Tool instrumentini ishlab chiqish uchun texnik yordam jalb qilindi[4].

Taraqqiyot darajasini baholashda patent ma'lumotlariga asoslangan texnologiyalar tahlili muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv orqali ishlab chiqilgan texnologiyalar umumiy sonida atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan texnologiyalar yoki ekologik innovatsiyalarning ulushi aniqlanadi. Bunday baholash quyidagi ko'rsatkichlarga tayanadi:

---

4O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida" hisobot.

•innovatsiyalarning umumiy hajmidagi ekologik innovatsiyalar ulushi;
•aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekologik innovatsiyalar soni.

Mazkur ko‘rsatkichlar mamlakatning ekologik yo‘naltirilgan innovatsion salohiyatini baholash, yashil texnologiyalar rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga qaratilgan strategik qarorlarni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va yashil texnologiyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda izchil kengayib bormoqda. Global ekologik muammolar — iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi — mavjud iqtisodiy modellarni takomillashtirishni talab etib, barqaror rivojlanishga asoslangan yangi yondashuvlarni shakllantirdi.

BMTning Barqaror rivojlanish – 2030 kun tartibi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asosini belgilab, ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishning uyg‘unligini ta’kidladi. Shuningdek, 2008–2009-yillardagi moliyaviy inqiroz ekologik jihatdan barqaror iqtisodiy modelga o‘tish zarurligini kuchaytirdi.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi 1972-yilgi Stokgolm konferensiyasi g‘oyalari hamda 2012-yilda UNEP tomonidan ishlab chiqilgan “yashil iqtisodiyotga o‘tish tamoyillari” asosida shakllandi. Ular resurslardan samarali foydalanish, zararli emissiyalarni kamaytirish, energiya samaradorligini ta’minlash va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishning yangi drayveri sifatida ko‘riladi. F. Geelsning sotsio-texnik tizimlar haqidagi ishlanmalarida yashil texnologiyalarning keng joriy etilishi iqtisodiy va institutsional transformatsiyalarni talab qilishi ta’kidlanadi. Xalqaro tadqiqotlarda esa yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va innovatsiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qayd etiladi. Masalan, Raihan A. (2022) ishlanmalarida yashil texnologiyalar Parij bitimi maqsadlariga erishishda muhim omil sifatida baholanadi.

Milliy manbalarda, xususan, “Yashil iqtisodiyot” darsligida (Vaxabov A.V. va boshqalar) yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, moliyalashtirish mexanizmlari va tarmoq yo‘nalishlari tizimli yoritilgan. O‘zbekistonda qabul qilingan “O‘zbekiston–2030 strategiyasi” hamda “2019–2030-yillarga mo‘ljallangan Yashil iqtisodiyot strategiyasi” mamlakatning ushbu yo‘nalishdagi uzoq muddatli rivojlanish vektorini belgilab berdi.

OECDning Green Growth Indicators bazasi va WIPO PATSTAT ma’lumotlari asosida O‘zbekistonning ekologik innovatsiyalar ko‘rsatkichlarini baholash imkoniyati mavjud bo‘lib, patent statistikasi ekologik innovatsiyalar ulushini aniqlashda asosiy indikator sifatida qo‘llanilmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar yashil texnologiyalarni iqtisodiy rivojlanishga integratsiya qilish global miqyosda ustuvor ilmiy yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar ekologik barqarorlikni kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil texnologiyalarni iqtisodiy rivojlanishga integratsiya qilish jarayonini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Metodologiya nazariy manbalar tahlili, statistik ko‘rsatkichlarni qayta ishlash va xalqaro tajribani taqqoslashga asoslanadi.

1. Nazariy-tahliliy yondashuv

Yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar va barqaror rivojlanish konsepsiyalariga doir xalqaro hamda milliy ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. BMTning Barqaror rivojlanish – 2030 kun tartibi, UNEPning yashil iqtisodiyot tamoyillari, F. Geelsning sotsio-texnik tizimlar nazariyasi, OECD va WIPO ma’lumotlari asosiy nazariy baza bo‘ldi. Ushbu yondashuv yashil texnologiyalar integratsiyasining nazariy poydevorini aniqlashga xizmat qildi.

2. Me’yoriy-huquqiy tahlil

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha qabul qilingan asosiy qaror va farmonlar tahlil qilindi. Jumladan:

•2023-yil 11-noyabr — “O‘zbekiston–2030 strategiyasi”,
•2019-yil 04-oktabr — yashil iqtisodiyot strategiyasi,
•2022-yil 02-dekabr — yashil islohotlar samaradorligini oshirishga oid qaror. Ular mamlakatning dekarbonizatsiya, energiya samaradorligi va yashil moliyalashtirish bo‘yicha siyosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

3. Statistik tahlil

OECD.stat va WIPO PATSTAT ma’lumotlari asosida 1993–2022-yillarda O‘zbekistonning ekologik innovatsiyalari tahlil qilindi. Asosiy indikatorlar:

•ekologik innovatsiyalar ulushi,
•aholi jon boshiga ekologik innovatsiyalar soni.

Tahlil O‘zbekistonning ekologik innovatsion salohiyati va patentlash faolligini aniqlashga yordam berdi.

4. Qiyosiy tahlil

O‘zbekiston amaliy tajribasi Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu yondashuv yashil innovatsiyalarni rag‘batlantirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va davlat–xususiy sektor hamkorligi kabi yo‘nalishlarni baholash imkonini berdi.

5. Empirik yondashuv

2022–2024-yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan muhim tashabbuslar o‘rganildi: AFD bilan 150 mln yevrolik dastur, Global Methane Pledge, TCAF orqali uglerod bozori, LTS strategiyasi, ESG tamoyillarini joriy etish va Climate Risk Assessment Tool ishlab chiqilishi. Ularning iqtisodiy va institutsional ahamiyati baholandi.

6. Patent tahlili

WIPO va PATSTAT bazalari asosida ekologik patentlar ulushi, aholi jon boshiga patentlar soni va O‘zbekistonning global ekologik texnologiyalar bozoridagi o‘rni tahlil qilindi. Ushbu metod ekologik innovatsion salohiyatni baholashga imkon berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq innovatsiyalarning O‘zbekiston innovatsiyalari umumiy hajmidagi ulushi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekologik innovatsiyalar soni 1993–2022-yillar davomida o‘zgarib borgan. OECD.stat tomonidan keltirilgan tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston 1990-yillarning boshlaridan boshlab ekologik texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish bo‘yicha sezilarli faollik namoyon etgan.

Biroq, innovatsiyalarning umumiy hajmida ekologik innovatsiyalar ulushi yillar kesimida barqaror chiziqli trend bilan emas, balki turli omillar ta’sirida o‘zgaruvchan tarzda shakllangan (1-jadval). Bu holat mamlakatda ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha salohiyat mavjudligini, biroq ularning yillik darajasi iqtisodiy va institutsional omillarga qarab farqlanib turganini ko‘rsatadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan innovatsiyalarning ulushi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekologik innovatsiyalar soni ekologik yo‘nalishdagi texnologik rivojlanishni baholashda muhim indikatorlardir. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sishi yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirish, barqaror innovatsion muhito‘ yaratish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda ijobiy ahamiyat kasb etadi(1-jadval).

1-jadval. Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq innovatsiyalarning umumiy innovatsiyalar hajmidagi ulushi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekologik innovatsiyalar ulushi[5]

| Yillar | 1993 | 1999 | 2000 | 2005 | 2011 | 2014 | 2017 | 2018 | 2020 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| innovatsiyalarning umumiy hajmidagi ekologik innovatsiyalarning ulushi | 40,00 | 14,29 | 66,67 | 38,71 | 32,43 | 9,52 | 55,26 | 14,29 | 26,09 | 33,33 |
| aholi jon boshiga ekologik innovatsiyalar soni. | 4,96 | 1,91 | 8,91 | 4,56 | 2,45 | 0,77 | 4,46 | 1,15 | 2,06 | 3,19 |

2022-yilda O‘zbekistondagi innovatsiyalarning 33 % dan ortig‘i atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkich global o‘rtacha qiymat — 10 % dan ancha yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ekologik texnologiyalar soni 3,19 birlikni tashkil etgan bo‘lib, bu global o‘rtacha ko‘rsatkich — 4,9 birlikdan biroz pastdir. Ushbu tafovut O‘zbekistonda ekologik innovatsiyalar rivojlanish salohiyati mavjudligini, biroq patent talablari soni bo‘yicha yanada faollikni kuchaytirish zarurligini anglatadi. Bu esa mamlakatda ekologik yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq innovatsiyalar ulushi ekologik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda barqaror iqtisodiy o‘sish, milliy raqobatbardoshlik va jamiyat farovonligini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. Mazkur ulushning oshib borishi kelajak avlodlar uchun toza va xavfsiz ekologik makonni

5 OECD. *Green Growth Indicators: Database Documentation.* — 2024. DOI: 10.1787/9789264268586-en.

shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik innovatsiyalar asosan energiya, suv va xomashyo resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantiradi, chiqindilarni kamaytiradi, qayta ishlash jarayonlarini rivojlantiradi, emissiyalarni nazorat qilishni kuchaytiradi va iqlim o'zgarishiga moslashuv mexanizmlarini takomillashtiradi. Bu innovatsiyalarning ko'payishi ekologik xavflarni kamaytirish, tabiiy ekotizimlarni saqlash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, yashil innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi: ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, "yashil" ish o'rinlarini yaratish va korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish kabi ijobiy natijalarga olib keladi.

2024-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq global texnologiyalardagi O'zbekiston ulushi 0,01 %ni tashkil etdi. Innovatsiyalar ko'rsatkichi Jahon patent statistikasi ma'lumotlar bazasi (PATSTAT) asosida hisoblanib, unda O'zbekiston ixtirochilari tomonidan berilgan patent arizalari tahlil qilinadi[6]. Shuningdek, 2024-yilda ekologik yo'nalishdagi innovatsiyalar Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan e'lon qilingan barcha patent talabnomalarining 5,1 % ini tashkil etgan. Bu holat O'zbekistonda ekologik texnologiyalar sohasida tadqiqot va ishlanmalarning izchil rivojlanib borayotganini ko'rsatadi[7].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil innovatsion texnologiyalar barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuv bo'lib, ular atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni minimal darajaga tushirishga qaratilgan. Ushbu texnologiyalarni joriy etish ekologik xavfsizlikni kuchaytirish bilan birga iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Asosiy xulosa shundan iboratki, yashil texnologiyalar nafaqat ekologik masalalarning yechimidir, balki innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish orqali iqtisodiy o'sishning yangi manbaini shakllantiradi.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ularning iqtisodiyotga integratsiyasi zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalar resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, ishlab chiqarishning yangi tarmoqlarini rivojlantiradi va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish natijasida energiya mustaqilligi kuchayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiyot diversifikatsiyasi shakllanadi. Yashil texnologiyalarning joriy etilishi ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni kengaytiradi, davlatlar o'rtasida tajriba almashinuvi va texnologik rivojlanishni jadallashtiradi hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi.

Global miqyosda Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy va Yaponiya kabi yetakchi davlatlar yashil texnologiyalarni rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks strategiyalarni amalga oshirmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil innovatsiyalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor ishtiroki va jamiyatning ekologik mas'uliyatini oshirish kabi omillar bilan uzviy bog'liq. Mazkur omillarning uyg'unlashuvi iqtisodiyotning ekologik va innovatsion barqarorligini mustahkamlaydi.

Yashil innovatsion texnologiyalar global muammolarni hal qilish va barqaror kelajakni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ularni iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga integratsiya qilish davlatlar uchun uzoq muddatli strategik ustuvor yo'nalish bo'lib, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, ilmiy-texnik almashinuv va innovatsion g'oyalar rivojlanishi yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini yanada jadallashtiradi va global ekologik muammolar yechimiga sezilarli hissa qo'shadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-noyabrdagi 158-son Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413 .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 04-oktabrdagi 4477-son Qarori https://lex.uz/uz/docs/-4539502 .
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 02-dekabrdagi 436-son Qarori https://lex.uz/docs/-6303230 .
4. Geels, F. W. From sectoral systems of innovation to socio-technical systems: insights about dynamics and change from sociology and institutional theory. Research Policy, 2004, 33, 897–920.
5. Raihan, A., Begum, R. A., Said, M. N. M., Pereira, J. J. (2022). Relationship between economic growth, renewable energy use, technological innovation, and carbon emission toward achieving Malaysia's Paris Agreement goals.


6 Butunjahon patent statistikasi ma'lumotlar bazasiga qarang: EPO - PATSTAT. Butunjahon patent statistikasi ma'lumotlar bazasi

7 Patentga talabnoma bo'yicha O'zbekistonning mamlakat profiliga qarang: WIPO. Country Profile: Uzbekistan. https://www.wipo.int/edocs/statistics-country-profile/en/uz.pdf.
Mazkur mamlakat bo'yicha statistik sharh O'zbekistonda intellektual mulk (IM) sohasidagi faoliyatni har tomonlama, tizimli va kompleks tarzda yoritadi.

6. Vaxabov, A. V., Xajibakiyev, Sh. B. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik. – Toshkent: Universitet, 2020. – 262 b.
7. Ulashov, A. R. O‘. G‘. L. (2024). Investitsion loyihani amalga oshirishning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari. Academic Research in Educational Sciences, 5 (TSUE Conference 1), 418–422.
8. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan ishlar” to‘g‘risidagi hisobot.
9. OECD. Green Growth Indicators. Database documentation, 2024. http://dx.doi.org/10.1787/9789264268586-en
10. Butunjahon patent statistikasi ma’lumotlar bazasi: EPO – PATSTAT.
11. WIPO. “Patentga talabnoma bo‘yicha O‘zbekistonning mamlakat profili.” https://www.wipo.int/edocs/statistics-country-profile/en/uz.pdf (Mazkur statistik sharh O‘zbekistonda intellektual mulk sohasidagi faoliyatni har tomonlama yoritadi.)
12. Ulashov, A. (2023). The Main Areas of Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Ensuring Economic Activity. European Journal of Business Startups and Open Society, 3(6), 23–29.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 12**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz